

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev Hududiy tashkil etishning ba'zi nazariyalarida aholi omilining o'rni va ahamiyati	6
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov Landshaftlar vertikal tabaqalanishini matematik modellashtirish.....	15
Q.S.Yarashev, B.B.Yusupov Ekoturizm resurslardan oqilona va samarali foydalanishning ayrim masalalari (Dehqonobod tumani misolida)	22
T.J.Jumayev, Sh.B.Qurbonov, K.O.Daljanov Tog'li hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba'zi masalalari	30
O.T.Mirzamahmudov Farg'ona vodiysi adir agrolandshaftlari va ularni joylashtirish yo'llari	36
O.M.Qo'ziboyeva, Z.Sherbayeva Janubiy Farg'ona daryolarining suv rejimiga iqlim o'zgarishining ta'siri	41
G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev Xavfli meteorologik hodisalarning takrorlanuvchanligini baholash (Farg'ona viloyati misolida) ..	45
Sh.Z.Jumaxanov, Sh.Sh.Zoirjonov Aholi xulq-atvorining etnolingvistik xususiyatlarini sotsiologik so'rovlar asosida o'rganish	54
R.Y.Xoliqov Farg'ona vodiysi paragenetik landshaftlari o'rtasidagi geokimyoviy migratsion jarayonlarning geoekologik muhitga ta'siri.....	61
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov Landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi va ularning tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari.....	64
Y.I.Ahmadaliyev, O.I.Abdug'aniyev, J.G'.Eminov Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash	68
D.G'.Mo'minov, O.Q.Tobirov Farg'ona viloyati ekoturistik imkoniyatlarini baholashning bazi jihatlarini.....	81
K.M.Xakimov Antroponimik model: milliy familiya va uning zaruriyati haqida	87
Y.B.Raxmatov Buxoro viloyatining cho'l xududlarida suvdan samarali foydalanishning geografik muammolari	93
R.T.Pirnazarov Shohimardonsoy havzasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik imkoniyatlari	96
P.R.Qurbonov Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining sotsial jihatlarini.....	103
H.A.Oblaqulov, Y.R.Buranov, M.Sh.Qo'ziyeva Navoiy viloyat aholisining dinamikasi va hududiy joylashuvi.....	113
Z.X.Madaminov Iste'mol geografiyasi fani, uning rivojlanishi, iste'mol savatchasi tushunchasi va uni tadqiq qilish	118
E.G'.Mahkamov Farg'ona vodiysida turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlari	122
Z.A.Temirov Mehnat resurslari va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi o'rtasidagi hududiy muammolarni geografik o'rganish.....	128
M.M.Avezov, A.M.Elmurotova Kattaqo'rg'on tumanining geologik va orografik tuzilishiga umumiy tabiiy geografik tavsif	135
M.R.Usmanov O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar.....	140

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA QO'SHIMCHA IMKONIYATLAR

ДОПОЛНИТЕЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

ADDITIONAL OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN

Usmanov Mashrab Rustamovich¹

¹Jizzax davlat pedagogika universiteti,
geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası dotsenti v.b. g.f.f.d (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada turizm, turizm infratuzilmalari, zamonaviy turizm sohasi, qo'shimcha investitsiya, turizm salohiyatini jadal rivojlantirish, turistik oqim, xalqaro aeroportlar, O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar, turizm salohiyatini oshirish masalalari, turistik tashriflar, turistlarni kirish darvozasi aeroport, turizm dasturlari, sayyohlarni yurtimizda ko'proq vaqt mobaynida olib qolish va madaniy meros obyektlarining turizmga tutgan o'rnini, uni rivojlantirish va tashkil etish, sayyohlarni jalb qilish bo'yicha istiqbolli loyihalalar, o'ziga xos udumlar, turmush tarzi, hatto turfa an'analari, turizm salohiyatini oshirish yuzasidan videoselektor, mamlakatimizda turistik statistik tahlillar, turistik tashriflarni amalga oshirishda samolyot va poezdlar bileti bilan bog'liq muammolar, davlatimiz rahbari tomonidan turizm sohasida ko'rsatib o'tilgan yutuq va kamchiliklar, joylashtirish vositalari, turizm dasturlari, Sayyohlarni yurtimizda ko'proq vaqt mobaynida olib qolish va jahon turizm tashkiloti hamda "O'zbekiston tashrif qog'ozi" masalalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация

В этой статье туризм, туристическая инфраструктура, современный туристический сектор, дополнительные инвестиции, быстрое развитие туристического потенциала, туристический поток, международные аэропорты, дополнительные возможности для развития туризма в Узбекистане, вопросы повышения туристического потенциала, туристические посещения, аэропорт прибытия туристов, туристические программы, роль объектов культурного наследия в туризме, его развитие и организация, привлечение туристов, уникальные достижения, образ жизни, даже газонные традиции, видеоселектор по повышению потенциала туризма, статистический анализ туризма в нашей стране, проблемы, связанные с авиацией и железнодорожные билеты в осуществлении туристических посещений, достижения и недостатки, указанные главой нашей страны в сфере туризма, способы размещения, сведения о туристических программах, удержании туристов в нашей стране на более длительный период времени, а также вопросы Всемирной туристской организации и «Визитная карточка Узбекистана».

Abstract

In this article, tourism, tourism infrastructures, modern tourism sector, additional investment, rapid development of tourism potential, tourist flow, international airports, additional opportunities for tourism development in Uzbekistan, issues of increasing tourism potential, tourist visits, tourist arrivals gate airport, tourism programs, the role of cultural heritage objects in tourism, its development and organization, attracting tourists, unique achievements, lifestyle, even turf traditions, video selector on increasing the potential of tourism, statistical analysis of tourism in our country, problems related to plane and train tickets in the implementation of tourist visits, achievements and shortcomings indicated by the head of our country in the field of tourism, means of placement, information about tourism programs, keeping tourists in our country for a longer period of time, and the issues of the World Tourism Organization and "Uzbekistan business card".

Kalit so'zlar: turizm, zamonaviy turizm sohasi, turizm salohiyati, turistik tashriflar, turizm dasturlari, madaniy meros obyektlari, jahon turizm poytaxti, "O'zbekiston tashrif qog'ozi", turizm brendi, videoselektor, joylashtirish vositalari, xalqaro telekanallar va internet platformalari, turistik statistik tahlillar.

Ключевые слова: туризм, современный туристический сектор, туристический потенциал, туристические посещения, туристические программы, объекты культурного наследия, мировая туристическая столица, «визитная карточка Узбекистана», туристический бренд, видеоселектор, инструменты размещения, международные телеканалы и интернет-платформы, статистический анализ туризма.

Key words: tourism, modern tourism sector, tourism potential, tourist visits, tourism programs, cultural heritage objects, world tourism capital, "Uzbekistan business card", tourism brand, video selector, placement tools, international TV channels and internet platforms, tourism statistical analyses.

KIRISH

Dunyoda turizm sohasi barcha infratuzilmalarni rivojlantirishga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida qaraladi. Zamonaviy turizm sohasi transport, ijtimoiy va xizmat ko'rsatish sohalarining yuqori darajada rivojlanishiga asoslangan bo'lib, bu oxir-oqibat

uni iqtisodiyotning yuqori rentabelli sohasiga aylantiradi. Shuningdek, turizm yo'nalishiga qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, xususiy sektor uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali turizm infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholi bandligini oshirish, transport qatnovi yo'nalishlarini kengaytirish, respublikaning turistik salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda targ'ib qilishni jadallashtirish va boshqa jihatlariga alohida e'tibor qaratish lozim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-sonli "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida: turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasiga olib kelingan har bir turist uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan teng ulushlarda 20 AQSh dollaridan 100 AQSh dollarigacha bo'lgan ekvivalentda rag'batlantiruvchi subsidiyalar ajratish hamda turoperatorlar va aviatashuvchilarning xorijiy mamlakatlardan Samarqand, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlariga amalga oshirilgan charter aviaqatnovlari bo'yicha ma'lumotlar ko'rsatib o'tilgan.

ISHNING MAQSADI VA VAZIFALARI

Turizm industriyasi jahon xo'jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli sohalarida biri bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunga kelib O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan mamlakatda turizm sohasini rivojlantirishni ko'zda tutuvchi maqsadli ishlar olib borilmoqda. Xususan, ekoturizm, ekstremal turizm, tibbiyot turizmi, avtoturizm, alpinizm va faol hordiq chiqarishning boshqa zamonaviy shakllarini ommalashtirish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilmoqda. Sohaning tez rivojlanishi, yangi ish o'rinlarini yaratish, sohadan kelayotgan daromadlarni oshirish, aholi turmush darajasi va yashash sifatini yaxshilash, shuningdek, investitsion jozibadorlikni yanada oshirishga qaratilgan.

Iqtisodiy geografik adabiyotlarda tarixiy-madaniy turizmga oid masalalar bir qancha olimlar tomonidan o'rganilgan va turlicha tahlil qilinib, ta'riflar berishgan. Gollandiyalik tadqiqotchi Richard Greg tarixiy-madaniy turizmni "kishilarning o'z madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun yangi ma'lumotlar va tajriba to'plash maqsadida odatiy yashash joyidan uzoqda joylashgan madaniy, diqqatga sazovor joylarga borishi" deya ta'riflaydi [8].

Rossiyalik mutaxassis olim Y.V.Kolotova tarixiy-madaniy turizmni "mamlakatning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga olgan an'ana va urf-odatlarini, uy xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'langan ijtimoiy-madaniy muhit salohiyati" deya ta'riflab o'tgan [5].

Mamlakatimiz olimlari va tadqiqotchilari I.To'xliyev, R.Amriddinova, O.Xamidov, N.Ibadullayev, B. Mamatov, M.Usmanov, Sh.Xolmurodov va boshqalar boshqalarning ilmiy asarlarida turizm sohasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlariga doir ko'plab masalalar yoritilgan lekin, tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishga oid ayrim masalalar yetarlicha o'rganilmaganligi bois ba'zi muammolar bugungi kunda ham alohida ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Shu bilan birga, davlatimiz rahbari tomonidan O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha bir qancha qaror, farmonlarida va ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar yaratilgan.

Ishning maqsadi O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar, davlatimiz rahbari tomonidan turizm sohasida ko'rsatib o'tilgan yutuq va kamchiliklarini aniqlash, yurtimizdagi bugungi kundagi madaniy meros obyektlarini aniqlash, turistik salohiyati va imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda respublika turistik imkoniyatlaridan kengroq foydalanish masalalari, sayyohlarni jalb qilish bo'yicha istiqbolli loyihalar, sohada innovasion g'oyalarni amalga oshirish yo'llarini o'rganishdan iborat bo'lib, ishning vazifalari sifatida ichki turizm dasturlari doirasida sayyohlikni rivojlantirish, tashrif buyuruvchilarni yurtimizda ko'proq vaqt mobaynida olib qolish, turizm imkoniyatlari va istiqbollari, mehmonxona, joylashtirish vositalari, ichki sayyohlikni rivojlantirishga oid bajarilayotgan ishlarga oid ma'lumotlarni o'rganishdan iborat.

ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega davlatdir. Uzoq yillar davomida ushbu sohaga kam e'tibor berilganligiga qaramasdan, mamlakatda turizm so'nggi yillar ichida sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Yurtimizning har bir hududi nafaqat tabiiy iqlimi, balki boy tarixiy merosi, o'ziga xos udumlari, turmush tarzi, hatto turfa an'analari bilan bir-birini aslo takrorlamaydi. Shu sababli ham bu zaminni ko'rmoq, uning havosidan to'yib nafas olish istagida

dunyoning turli tomonlaridan bu hududga tashrif buyurayotgan sayyohlar soni yil sayin ortib, ko'payib bormoqda.

Ma'lumki, Prezidentimiz tomonidan 2023-yil 29-mart kuni mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazilib, unda yurtimizda turizm sohasini rivojlantirishga oid bir necha vazifalar belgilab berilgan edi. Turizm sohasi ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan keng qamrovli soha bo'lib, u daromad keltirishi bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinni egallaydi. Yana bir muhim tomoni shundaki, bu soha kam xarajat bilan ko'p ish o'rinlari yaratish imkoniyatini yaratadi. Bugungi kunda bu soha mamlakatimizda izchil rivojlanib bormoqda. Jumladan, statistik ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, 2022-yilda respublikamizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 2021-yilga nisbatan uch baravar oshgan bo'lib, soha eksporti 1 milliard 600 million dollarni tashkil etgan. Ichki turizm dasturlari doirasida yurtimizda 11 milliondan ziyod aholi sayohat qilgan. Yangi turizm markaz barpo etilishi natijasida turistik markaz bo'lgan Samarqandga qo'shimcha 2 mln. dan ortiq sayyoh tashrif buyurishgan.

Aslida mamlakatimizda bu sohadagi imkoniyati bundan ancha yuqori hisoblanadi. Yurtimizdagi diqqatga sazovor destinatsiyalarga kelmoqchi bo'lgan sayyohlar soni juda ko'pchilikni tashkil etadi. Lekin, ularni qiziqtiradigan joylar haqida ma'lumotlar kam hisoblanib, turistlarni 4-5 kun olib qoladigan dasturlar hali yetarli darajada deb bo'lmaydi. Shu bilan birga, turistik tashriflarni amalga oshirishda samolyot va poezdlarga biletni bir necha oy oldindan sotib olishda ko'pgina noaniqliklarni uchratish bilan birga ushbu soha rivojiga to'siq bo'layotgan ba'zi muammolarni hal qilish bo'yicha muhim chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan turizm sohasida ko'rsatib o'tilgan yutuq va kamchiliklarni biz quyidagi ma'lumotlar asosida yoritishimiz mumkin:

- Ma'lumki, uzoq xorijliklar uchun O'zbekistonga kirish darvozasi bu - aeroportdir. So'nggi yillarda yurtimizda 5 ta yangi xususiy aviakompaniya tashkil qilindi, aviatsiya parkimiz 44 taga yetkazildi.

- O'tgan yili Samarqand aeroporti "beshinchi osmon" rejimida ishlashiga o'tgani hisobiga, haftalik aviaqatnovlar soni 46 tadan 78 taga, yo'lovchi oqimi esa 6,5 mingdan 10 mingtaga ko'paydi. Lekin, ichki reyslar taqchilligi haftasiga Nukus va Urganchga 20 tani, Samarqandga 15 tani, Buxoro va Termizga 11 tani tashkil qilmoqda. Shu kabi, temir yo'lda haftasiga 68 ta qo'shimcha qatnovga, 350 ta yangi vagonga talab borligi, Qoraqalpog'iston, Jizzax, Namangan va Surxondaryoda sayyohlarga avtobus yetishmasligi;

- 2023-yil yakunigacha yana 20 ta zamonaviy samolyot olib kelib, aviaqatnovlarni ko'paytirishi, jami mahalliy reyslar soni ikki baravar oshirilib, 100 taga yetkazilishi, ayrim yo'nalishlar bo'yicha aviachipta xarajatining bir qismiga subsidiya berilishi;

- Shuningdek, 2023-yil 8 ta elektr poezd olib kelinadi. Turoperator, mehmonxona va tashuvchilarga 10 va undan ortiq o'rindiqli avtotransportlar olib kirishda bojxona imtiyozlari beriladi. Qamchiq dovonida mikroavtobus, Jizzax dovoni, Chimyon va Chorvoqda turistik avtobus va mikroavtobuslar qatnoviga ruxsat beriladi.

Turizm sohasining rivojlanishida yana bir muhim omil bu mehmonxona, joylashtirish vositalaridir. Bu borada keng imkoniyat yaratilganini hisobiga, so'nggi besh yilda mehmonxona o'rinlari 2 baravar oshirilib, 60 mingtaga yetkazilgan. Shu bilan birga davlatimiz rahbari tomonidan xorijiy konsalting kompaniyalarni jalb qilib, mehmonxonalaridagi sharoitlarni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish, ular uchun qo'shimcha kredit resurslari ajratish zarurligini ta'kidlab o'tgan edi.

Turizm dasturlarining mazmuniga ham e'tibor qaratilishi lozim. Bugungi kunda xorijiy sayyohlarning O'zbekistonda bir kun ko'proq qolishi yillik turizm eksportini 300 million dollarga oshiradi. Misol uchun, Xorazmda xorijiy turistlar Buxoro va Samarqandga qaraganda 2 baravar kam bormoqda. Lekin, Xorazmda sayyohlarni 3-4 kun olib qolish uchun barcha imkoniyat mavjuddir. Bundan tashqari o'tgan 2022-yili 31 ta tuman va 143 ta mahalla turizmga ixtisoslashtirilib, ularda alohida soliq rejimi joriy qilingan. Bu kabi imtiyozlardan 4 mingga yaqin korxonalar foydalanib, tovar aylanmasi 1,5 baravar oshganligini ko'rish mumkin.

Sayyohlarni yurtimizda ko'proq vaqt mobaynida olib qolishda yetishmayotgan jihati bu qiziqarli dasturlar va targ'ibot ishlari desak xato bo'lmaydi. Shu sababli bu borada ko'maklashishga 11 ta oliy ta'lim muassasasi birlashtirilgan. Ular 31 ta tuman va 143 ta turizm mahallasining tarixi, yodgorliklari va diqqatga sazovor joylari haqida ma'lumotlar majmuini yaratishadi. Ular asosida 12 ta tilda turistik paketlar ishlab chiqiladi. Mutasaddilarga mehmonxona, madaniyat, tabiat, etno va

gastronomik markazlarni bog'laydigan turizm klasterlari tashkil etish, "turistlar uchun mehmondo'st muhit sertifikatini"ni joriy qilish bo'yicha topshiriqlar berilgan.

Yurtimizda turizm dasturlari asosan aprel-may va sentabr-oktabr oylariga moslashgan bo'lib, bu mavsumni uzaytirish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud. Masalan, qishda Toshkent va Jizzax viloyatlarida chang'i, boshqa joylarda yozda cho'milish maskanlarini tashkil etib, turistik mavsumga yana ikki oy qo'shish mumkin. Shuningdek, yozda 22 ta qo'riqxonalar, 24 ta milliy tabiat bog'i va tabiat yodgorliklari imkoniyatidan ham foydalansa bo'ladi. Shu kabi manbalar asosida, yozgi va qishki mavsumlarga mo'ljallangan loyihalar ishlab chiqish, turistik mavsum bo'lmagan kunlarda sayyohlar uchun qiziqarli festival va madaniyat tadbirlari tashkil qilish lozimdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yurtimizda bugungi kunda 8208 ta madaniy meros obyektlari va 122 ta muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Yoshlar uchun adabiyot, tarix, geografiya, tasviriy san'at singari fanlarni ushbu maskanlarda tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yurtimizda Jahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining yig'ilishi o'tkazilishi, Samarqandning 2023-yilda Jahon turizm poytaxti bo'lishi, albatta yurtimizda turizmga berilayotgan e'tiborning kuchayayotganligidan dalolat beradi. Vatanimizning boy madaniyati va turistik salohiyatini jahonga targ'ib qilish kerak. Shu maqsadda marketing va reklama bilan sayyohlarni jalb qilish uchun 100 milliard so'm ajratilishi belgilab berilgan edi. "O'zbekiston tashrif qog'ozini"ni ishlab chiqib, turizm brendini yangilash, xalqaro telekanallar va internet platformalarida O'zbekiston haqidagi reklama roliklarini ko'paytirish muhim hisoblanadi. Umuman olganda 2023-yil mamlakatimizga 7 million xorijiy va 15 million ichki sayyohlarni jalb qilish, soha eksportini 2,5 milliard dollarga yetkazish imkoniyati borligi ko'rsatib o'tish lozim.

XULOSA

Bugungi kunda yurtimizda turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotganligi sababli ushbu soha rivojlanib bormoqda. Shuningdek, turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar, yangi ish o'rinlarini yaratish va uni rivojlantirish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqish lozim bo'ladi. Respublikamizga tashrif buyurgan xorijiy va mahalliy turistlar soni oshirish, davlatimiz rahbari tomonidan turizm sohasida ko'rsatib o'tilgan yutuq va kamchiliklarni bartaraf etish, mehmonxona va joylashtirish vositalarini zamon talablarida ta'mirlashga e'tiborni qaratish, qiziqarli dasturlar va targ'ibot ishlari va turizm dasturlari yaratish hamda turistik mavsumni uzaytirish bo'yicha imkoniyatlarini ishlab chiqish orqali yurtimizda yanada turistik oqimning ko'payishiga sabab bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lapasovich, M. O., Nematovich, N. O., Yakubovich, Z. B., Rustamovich, U. M., & Tolipov, F. (2020). HISTORICAL AND ETHNOGRAPHIC CHARACTERISTICS AND SOCIO-SPIRITUAL FACTORS OF VISITING TOURISM IN UZBEKISTAN. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 47-50.
2. Komilova, N. K. (2021). TOURIST DESTINATION AS AN OBJECT OF RESEARCH OF SOCIAL AND ECONOMIC GEOGRAPHY. *Psychology and Education Journal*, 58(1), 2058-2067.
3. Komilova, N. K., Matchanova, A. E., Safarova, N. I., Usmanov, M. R., & Makhmudov, M. M. (2021). Some socio-economic aspects of gastronomic tourism study. *Estudios de economía aplicada*, 39(6), 12.
4. Usmanov, M. R., & Janizoqova, G. M. (2022, January). DUNYO SIVILIZATSIYASINING RIVOJLANISHIDA "BUYUK IPAK YO'LI" NING TARIXIY GEOGRAFIK AHAMIYATI. In *International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses* (pp. 5-9).
5. Колотова Е. В. Рекреационное ресурсоведение: Учеб. пособие. - М.: ПМАТС. [1, с. 92-93].
6. Усманов, М. (2020). Теоретика-методологические вопросы географии экологического туризма. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-4.
7. Холикулов, Ш., & Мавлонова, С. (2020). Ўзбекистонда туристик имкониятлардан фойдаланишнинг географик жihatлари. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-7.
8. Richards, G. (1996) *Cultural Tourism in Europe*. CABI, Wallingford. [1, с. 45].
9. <https://uzbektourism.uz>